

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi majlisi to'g'risida

2016-yil 27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Xavfsizlik kengashi Raisi Islom Karimov boshqardi.

Mamlakatimizning janubiy sarhadlarida xavfsizlikni ta'minlash, tahdid va xavf-xatarlarni bartaraf etish, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama etildi.

Majlisda hukumat va tegishli idoralar rahbarlari ishtirok etdi.

O'zA

[Havola:http://uza.uz/uz/politics/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-huzuridagi-xavfsizlik-ke-28-07-2016](http://uza.uz/uz/politics/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-huzuridagi-xavfsizlik-ke-28-07-2016)